Hududning moliyaviy barqarorligi – hududning shunday ijtimoiy-iqtisodiy holati bo'lib, u hududiy birlik tarkibidagi moliyaviy oqimlarning samarali ishlashi orqali aholining turmush sifatini oshirishni ta'minlaydi, shu bilan birga, ularning muvozanatini saqlaydi. Hududning moliyaviy barqarorligi asosan iqtisodiyot raqobatbardoshligi bilan belgilanadi. Ma'lumki, iqtisodiy rivojlanishi yuqori hududlar katta ichki moliyaviy resurslarga ega bo'lib, bu ularning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiladi. Aksincha, moliyaviy barqarorlik darajasi nisbatan past bo'lishligi tufayli hudud raqobatbardosh bo'ladi. Hududning moliyaviy barqarorligi deganda hududiy hokimiyat organlari vakolatlarini ta'minlash maqsadida hududning pul mablag'lari daromadi va xarajatlari balansi hamda ichki va tashqi omillar ta'sirida ularning mutanosib o'zgarishi, bu joriy va uzoq muddatli istiqbolda uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi tushuniladi. Ta'kidlash joizki, bu, avvalo, hududning o'z majburiyatlari bo'yicha to'lov qobiliyati, shuningdek, o'z manbalari hisobidan kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun sharoit yaratuvchi iqtisodiyotning holatidir. Hududning moliyaviy barqarorligini sifat jihatidan baholashning asosiy mezonlari uning moliyaviy imkoniyatlari hisoblanadi.

1 Muallif ishlanmaci.




Iqtisodiy adabiyotlarda “hududning moliyaviy salohiyati” ta’rifining mohiyatini aniqlash uchun quyidagi yondashuvlar mavjud:

1-jadval: “Hududning moliyaviy salohiyati” tushunchasining mohiyatini aniqlashdagi yondashuvlar²

№	Yondashuvlarning nomi	Tavsifi
1	Resursli yondashuv	Unda hududlarning moliyaviy salohiyati vaqt o’tishi bilan o’zgarib turuvchi moliyaviy resurslar hajmining o’zgarishida namoyon bo’ladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv tarafdorlari moliyaviy salohiyat shakllanishi borasida turli sohalarni belgilaydi, ya’ni davlat moliyasi, hududning davlat hokimiyati organlari, xo’jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy mablag’lari, moliya-kredit sohasining moliyaviy resurslari, jamoat tashkilotlarining moliyaviy resurslari, aholining moliyaviy resurslari va tashqi mablag’lar.
2	Moliyaviy salohiyatni aniqlashda natijali yondashuv	Muntazam daromad (natija) olishga asoslangan. Mazkur yondashuv doirasida moliyaviy salohiyat rejali prognoz hisob-kitoblarning elementi bo’lgan va quyidagilarni o’z ichiga olgan moliya-budjet siyosati samaradorligining kompleks ko’rsatkichi sifatida belgilanadi: byudjet salohiyatini yig’indisi, aholi daromadlari, pul va sug’urta tashkilotlari mablag’lari, shuningdek, qarz mablag’lari. Ko’rsatkichda “foydalanilmaydigan zaxiralar parametrlari, hisobga olinmagan daromadlar va turli xil xavf tug’diruvchi omillar ta’siri natijasida yo’qotishlar”ni hisobga olgan holda daromadlarning potensial qiymatlari aks etadi.
3	Resurslarga yo’naltirilgan yondashuv	Moliyaviy salohiyat ayrim iqtisodiy subyektlarning takror ishlab chiqarish jarayonini ta’minlovchi hudud yoki hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun resurslardan maqsadli foydalanish sifatida belgilanadi.

Mavjud yondashuvlarni tizimlashtirish “hududning moliyaviy salohiyati” ta’rifining keng va tor talqinini aniqlash imkonini beradi. Shunday qilib, tor talqinga ko’ra, moliyaviy salohiyat “hududning moliyaviy salohiyati” ta’rifi, ya’ni unda joylashgan korxonalar moliyaviy salohiyati yig’indisiga keltiriladi. Moliyaviy salohiyatning keng tushunchasi uning tarkibiga quyidagi elementlar: konsolidatsiyali (birlashtirilgan) byudjet; byudjetdan tashqari mablag’lar, byudjetlararo oqimlar, mamlakat subyektlari yoki mahalliy o’zini-o’zi boshqarish organlari va ma’muriyati tomonidan chiqarilgan qimmatli qog’ozlar, barcha mulk shaklidagi korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy salohiyati, aholining naqd yoki bankdagi mablag’lari moliyaviy institutlar, shuningdek, turli xil qimmatli qog’ozlar shaklida; hududiy kredit-moliya tizimi muassasalarining moliyaviy resurslari, shuningdek, boshqa hududlardan banklar jalb etgan mablag’larni kiritish bilan bog’liq.

Hududlardagi moliyaviy salohiyatning iqtisodiy mohiyati to’rt jihatning yig’indisi bilan belgilanadi:



1-rasm: Hududlardagi moliyaviy salohiyatning iqtisodiy mohiyati³

Hozirgi kunda intensiv takror ishlab chiqarish omillarining ahamiyati tobora ortib borishi bilan bir qatorda, moliyaviy salohiyatning sifat xususiyatlari ahamiyati ortib bormoqda. Hududdagi mavjud iqtisodiy munosabatlarning umumiy spektrini aks ettiruvchi moliyaviy salohiyat hudud iqtisodiy rivojlanishi va boshqaruv qarorlarining sifat ko’rsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun hududning moliyaviy salohiyatini boshqarish hududni strategik, taktik va operativ boshqarishning muhim elementlaridan biridir⁴.

2 Muallif ishlanmasi


3 Muallif ishlanmasi.

4 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy-elektron




Hududning moliyaviy salohiyati va uni boshqarish hududning barqaror rivojlanishini ta'minlash nuqtai nazaridan olimlar tomonidan an'anaviy ravishda shakllanish manbalari nuqtai nazaridan emas, balki ehtimoliy foydalanish yo'nalishlari bo'yicha tarkibiy-funksional yondashuv nuqtai nazardan o'rganilishi kerak. Bunday yondashuv foydalanishga tayyor resurslar va foydalanishga mo'ljallangan vositalar o'rtasida mavjud vaqtni hisobga olishni ta'minlaydi. Biroq hududlarni faqat ichki zaxiralar hisobiga va vaqtincha bo'sh moliyaviy resurslarni jalb etish hisobiga rivojlantirish imkoniyati deyarli yo'qotiladi. Hududlar o'z hududlarida to'plangan barcha moliyaviy resurslarga ham egalik qilish huquqiga ega emas (ma'lum qismi yuqori darajadagi hukumat daromadlari hisoblanadi). Bundan tashqari, hududiy rivojlanishning moliyaviy ta'minlanish darajasini tenglashtirish maqsadida amalga oshirilgan moliya tizimi yuqori bo'g'inidagi mablag'larni davlatning ichki qayta taqsimlash jarayonida joylarda jamlangan moliyaviy resurslar miqdori mavjud moliyaviy salohiyat miqdoridan oshishi mumkin⁵.

Hududning moliyaviy-investitsion salohiyati etarlicha yangi tushuncha bo'lib, uning mohiyati o'zaro bog'liq uchta xususiyatning birligidan iborat (1-rasm). Umuman, moliyaviy-investitsion salohiyatni ishlab chiqarish omillari to'plamini va hududda mavjud kapitalni qo'yilmalar sohalari sifatida o'rganish mumkin. Tor ma'noda moliyaviy-investitsion salohiyat asosiy makroiqtisodiy jihatlar, hududning ishlab chiqarish omillari (tabiiy resurslar, ishchi kuchi, asosiy vositalar, infratuzilma va hokazolar) bilan ta'minlanganligi, aholining iste'mol talabi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga oluvchi miqdoriy tavsifdir.



2-rasm: Hududning moliyaviy-investitsion salohiyatining xucuciyatlari⁶

Tuzilmaviy jihatdan hududning moliyaviy-investitsion salohiyati uchta: iqtisodiy, resurs va ijtimoiy tarkibiy qismining yig'indisi sifatida ifodalanishi mumkin. Mazkur amallar o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiradi va uning bog'liqlik, uzviylik mohiyati sifatida foydalanilganda yuzaga keladi (3-rasm).



3-pacm: Hududning moliyaviy-investitsion salohiyati tarkibi⁷

jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

5 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

6 Muallif ishlamasi.

7 Muallif ishlanmami.



Hudud moliyaviy-investitsion salohiyatining moliya-iqtisodiy salohiyat tarkibikengaytirilgan takror ishlab chiqarish va ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lib, bu uning barcha elementlari faol amal qilib, o'zaro ta'sirga ega bo'lgandagina ta'minlanishi mumkin. Bunda hudud moliyaviy-investitsion salohiyatining iqtisodiy komponenti rivojlanib borishi, bir tomondan, o'z iqtisodiy salohiyati (tabiiy-resurs, ishchi kuchi, ishlab chiqarish, infratuzilma salohiyati), boshqa tomondan, hukumat institutlarining uni boshqarishning samarali mexanizmlarini yaratish qobiliyatiga (boshqaruv va tashqi iqtisodiy salohiyat) bilan belgilanadi⁸.

3-rasmga ko'ra, hudud moliyaviy-investitsion salohiyatining iqtisodiy komponenti nisbatan past rivojlangan bo'lsa, hudud tashqi manbalar va boshqa hududlar bilan o'zaro iqtisodiy bog'liqlik jarayoniga shunchalik bog'liq bo'ladi. Demak, hudud moliyaviy-investitsion salohiyatining iqtisodiy tarkibiy qismini samarali qo'llashning asosiy mezonini boshqaruv qarorlarining maqbulligini oshirish bo'lib, u siyosiy qo'llab-quvvatlash va ma'lum rejalashtirish yo'nalishlariga ega hamda jamoatchilik fikri manfaatlarini ifoda etishi kerak. Moliyaviy-investitsion salohiyatning resursli komponenti hudud moliyaviy resurslari yig'indisini aks ettiradi. Hududning barqaror rivojlanishini ta'minlash nuqtai nazaridan uning moliyaviy-investitsion salohiyatni shakllantirishdagi ahamiyati uchta pozitsiya: hudud moliyaviy mablag'lari (moliyaviy resurslari) uning iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashi (ta'minlashi) imkoniyati; moliyaviy mablag'lar tarkibi va hajmi; moliyaviy resurslarni maksimal darajada jalb etish, foydalaniluvchi resurslarning maqbul tuzilishi orqali erishish mumkin bo'lgan iqtisodiy obyektini rivojlantirishning real samarasi bo'yicha o'rganilishi kerak.

Pesursli komponentni shakllantirish nuqtai nazaridan quyidagilarni ajratib ko'rsatish kerak:

- 1) yaratilgan (ma'lumotli) resurslar – hududda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati natijasida olingan moliyaviy natijalar, shuningdek, hudud aholisining pul mablag'lari⁹;
- 2) hudud ixtiyoridagi moliyaviy resurslar – pul mablag'lari fondlari bo'yicha resurslarni qayta taqsimlashni hisobga olgan holda shakllangan moliyaviy resurslar, ya'ni hududda sanoat va ijtimoiy rivojlanish uchun foydalanish mumkin bo'lgan resurslar miqdorini namoyon etadi¹⁰.

Moliyaviy-investitsion salohiyat resursli komponentini oshirishning asosiy vazifasi belgilangan muddat-gacha moliyaviy resurslarning zarur hajmini kafolatlangan moliyalashtirish manbalari hisobidan to'liq va o'z vaqtida ta'minlash hisoblanadi. Hudud tizimidagi mazkur ta'minot obyekti hududdagi joriy va investitsiya faoliyatini moliyalashtirish hamda uning moliyaviy barqarorligini oshirish uchun hududning moliyaviy-investitsion salohiyatini maksimal darajada oshirish jarayonidir.

Hududdagi moliyaviy-investitsion salohiyatning resursli komponentini shakllantirish jarayoni moliyaviy resurslarning kirib kelishi va chiqib ketishiga yoki ularning ma'lum vaqt (hisobot berish) oralig'idagi iqtisodiy tizimdagi farqi natijalariga asoslanadi. Mazkur jarayon moliyaviy resurslarning maksimal ijobiy saldosi ta'minlashi kerak, bu esa hududlarni rivojlantirish uchun moliyaviy barqarorlik chegarasini shakllantirish imkonini beradi.

Hududiy resurslar oqimiga quyidagilar kiradi: ma'lum vaqt oralig'ida hududning solikli va soliqsiz daromadlari; ma'lum vaqt oralig'ida hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishga kiritilgan nomoliyaviy sohadagi investorlarning resurslari; ma'lum vaqt oralig'ida hududdagi iqtisodiy subyektlar rivojlanishiga kapital qo'yilmalarni ta'minlovchi hududiy kredit tizimi resurslari; hududlarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash doirasida hududlar tomonidan olingan byudjetlararo transfertlar¹¹.

Ma'lum vaqt oralig'ida resurslarni investitsiya yo'nalishi bo'yicha resurslarning chiqib ketishi: byudjet xizmatlari iste'molchilarini moliyalashtirish uchun resurslarni ajratish (joriy byudjet xarajatlarini amalga oshirish); investitsiya dasturlarini moliyalashtirish (byudjet kapital xarajatlari va investorlarning kapital qo'yilmalari); hududiy kredit tizimidan olingan resurslar uchun to'lov; byudjet daromadlarini qayta taqsimlash tizimi doirasida mablag'larni yuqori byudjetga o'tkazish¹².

Ta'kidlash joizki, moliyaviy-investitsion salohiyatni shakllantirishda moliyaviy resurslarning ahamiyatini aniqlashda o'ziga xos murakkabliklar mavjud. Tadqiqotlar ko'rsatishicha optimal variantni izlash va mavjud omillardan foydalanishni kuchaytirishni taqozo etadi. Yana bir jihat uning cheklangan ko'rinishi moliyaviy-investitsion salohiyat shakllanishi va amalga oshirilishini sekinlashtirishi yoki oshkor qilish mumkinligi hisoblanadi.

8 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

9 www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

10 www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

11 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

12 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf



Hudud moliyaviy-investitsion salohiyatining ijtimoiy komponenti hududdagi aholiga eng qulay yashash sharoitlarini ta'minlash uchun imkoniyatlar va aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning kompleks majmuidir.

Ijtimoiy komponentni shartli ravishda resurslarning ikki blokiga ajratish mumkin: inson resurslari va hududning ijtimoiy infratuzilmasi. Inson resurslari shaxs nuqtai nazaridan har bir inson uchun mavjud bilim, ko'nikma, motivatsiya zaxiralari bilan belgilanadi. Ijtimoiy infratuzilma – turli xil xizmatlar ko'rsatish orqali insonning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini amalga oshirish jarayonida kompleks takror ishlab chiqarishga yordam beruvchi tarmoqlar va tadbirlar yig'indisidir.

Qayd etish kerakki, bu komponentning moliyaviy-investitsion salohiyat tarkibidagi ahamiyatining oshishi jamiyat va bilimlar iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, axborot resurslari zaxiralari kamaymaydi, aksincha, ortib boradi¹³.

Moliyaviy-investitsion salohiyatdagi iqtisodiy, resursli va ijtimoiy komponentlarning o'zaro bog'liqligi amalda (ularning imkoniyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi o'rni hamda ahamiyatiga ko'ra) ularning optimal nisbatlarini aniqlash zaruratini belgilaydi. Biror elementning o'zgarishi o'z-o'zidan rentabellikning pasayishi yoki boshqa elementlarning faoliyat samaradorligining kamayishiga sabab bo'ladi, chunki ular tizimli va o'zaro birlikda amal qiladi.

Umuman, hududning moliyaviy-investitsion salohiyati ko'p qirrali iqtisodiyot va rivojlangan infratuzilmani shakllantirishga qaratilgan investitsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur miqdordagi moliyaviy va investitsiya resurslarini shakllantirishni ifodalaydi. Turli xil moliyaviy-investitsion resurslarni birlashtirish va ularni hududiy iqtisodiyotni o'zgartirish uchun investitsiya dasturlariga yo'naltirish moliyaviy-investitsion salohiyatni boshqarishni talab etadi.

Samarali boshqaruvni ta'minlash nuqtai nazaridan hududning moliyaviy-investitsion salohiyatini darajalar bo'yicha taqsimlash maqsadga muvofiq: haqiqiy salohiyat (erishilgan salohiyat) – hudud ega bo'lgan turli xil xususiyatlarga ega resurslar, hududiy rivojlanishning ma'lum darajasiga erishish uchun takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishi mumkin bo'lgan vosita va manbalarning haqiqiy to'plami; istiqbolli potensial (ehtimoliy potensial) – hudud uchun mavjud imkoniyatlarning maksimal miqdori, unga erishish ehtimoli hududiy boshqaruv sifati va tashqi muhitning qulay ta'siri orqali belgilanadi.

Hududiy boshqaruv jarayonida kelgusida foydalanish nuqtai nazaridan hududdagi moliyaviy-investitsion salohiyatning tizimli modelini ishlab chiqishda tizim tahlilning quyidagi asosiy jihatlarini hisobga olish zarur (4-jadval).

4-jadval: Hududdagi moliyaviy-investitsion salohiyatning tizimli modelini ishlab chiqishdagi asosiy jihatlar¹⁴

№	Asosiy jihatlar nomi	Tavsifi
1	Tarkibiy yo'nalishga doir	Salohiyat turlarini aniqlash, salohiyat elementlarining differensial xususiyatlarini shakllantirish, salohiyat elementlari umumiyliigi va quvvatini baholashdan iborat
2	Tizimli jihat	Salohiyatlar tizimi tarkibiy xususiyatlarini (aloqa turlari, miqdor va sifat jihatdan o'zaro bog'liqliklarini) aniqlash salohiyatlar iyerarxiasini aniqlashdan iborat bo'lib, salohiyatlar tizimining hududga nisbatan tashqi muhit bilan muvofiqlashtirish aloqalarini barqaror rivojlantirishning ahamiyati va bu aloqalar umumiyliigini belgilash bilan bog'liq
3	Funksional jihat	Hududiy rivojlanish tizimidagi salohiyat funksiyalarini aniqlash, salohiyatlardagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash, hududiy salohiyatning funksional tuzilishini aniqlash maqsadida funksiyalarni taqqoslashdan iborat
4	Integral jihat	Barcha salohiyatlar tizimidagi ziddiyatlarni, aniqlangan ziddiyatlarni hal etish yo'l-yo'riq va usullarini aniqlashdan iborat
5	Tarixiy jihat	Hududlarning salohiyatini ularning tarixiy rivojlanish "prizmasi" orqali o'rganish, ularning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini aniqlash, aniqlangan tendensiyalar uchun qabul qilingan rivojlanish xususiyatlari bilan taqqoslash

Mazkur modelning asosiy prinsiplari quyidagilar bo'lishi kerak: murakkablik, ya'ni hududdagi moliyaviy-investitsion salohiyatning barcha muhim jihatlarini hisobga olish; asosiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi va hududiy rivojlanishning xususiy va integral ko'rsatkichlarining ierarxik tartibli tuzilmasidan foydalanish hiso-

13 www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

14 Muallif ishlanmasi.



bini o'z ichiga olgan ko'rsatkichlar tizimligi; hududiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlarini tanlashda dastlabki ma'lumotlarning qiyosiy ishonchlilik omillari hisobi; maksimal darajada ta'minlash, Respublika va hududiy boshqaruv darajalarida tegishli qarorlarni qabul qilish nuqtai nazaridan modelning chiqish parametrlari axborotliligi; asosiy va integral ko'rsatkichlar bo'yicha hududiy ko'rsatkichlarning optimal o'zgaruvchanlik darajasiga erishish.

Umuman, hududning moliyaviy salohiyatini maqbullashtirish modelini shakllantirish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Moliyaviy salohiyat darajasiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillar to'plamini aniqlash va tizimlashtirish hamda hududning rivojlanish darajasidagi yakuniy xulosani shakllantirish. Mazkur omil guruhlarining ta'siri hududdagi iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga doir dasturlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.
- Moliyaviy salohiyat darajasida omillarning ta'siri xususiyati va darajasini baholash. Pesurslarning cheklanganligi yoki ortiqcha miqdorini shakllantirishga sabab bo'lish ehtimoliga ega vaziyatlar tahlil qilinadi, ehtimoliy taqchillik yoki ortiqcha miqdor miqdoriy baholanadi.
- Tasodifiy omillar ta'siri natijasida kelib chiquvchi resurslar yo'qotilishini kamaytirish.
- Mavjud resurslarning miqdorini kamaytiruvchi "muammoli joylar"ni aniqlash.
- Tashkiliy tadbirlarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish hududning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, hududning moliyaviy-investitsion salohiyatini shakllantirish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlash nuqtai nazaridan boshqarish hududning moliyaviy-investitsion resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlovchi muhim vazifa hisoblanadi. Cheklangan resurslar, amalga oshirish uchun tanlangan dasturlar va loyihalarni qayta ko'rib chiqish zarurligini yoki salohiyatning tarkibiy qismlariga ta'sir qilish usullarini keltirib chiqarishi mumkin¹⁵.

Moliyaviy-investitsion salohiyatga ta'sir etuvchi asosiy vositalar quyidagilar bo'lishi kerak:

- 1) turli manbalarga ega moliyalashtirish tizimini tashkil etish orqali salohiyatni oshirish;
- 2) moliyaviy-investitsion infratuzilma institutlarini shakllantirish;
- 3) moliyaviy resurslarning hududiy bozorlarini faollashtirish.

Shu bilan birga, resurslar cheklanganligi sababli moliyaviy-investitsion salohiyatni oshirish imkoniyatini investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning keng qamrovli hududiy tizimini tashkil etish orqali ta'minlash mumkin. Ushbu tizim ko'p yo'nalishga ega bo'lishi kerak, ya'ni har tomonlama va mustaqil ravishda foydalanish mumkin bo'lgan an'anaviy hamda yangi moliyaviy resurslarni jalb etish turlari va usullarining yig'indisiga asoslangan bo'lishi kerak.

Mazkur vositalarga quyidagilarni kiritish mumkin deb hisoblaymiz: davlat-xususiy sheriklik tizimi, loyihani moliyalashtirish mexanizmi, sindikatli kreditlashni amalga oshirish uchun hududiy moliya-kredit tizimi resurslari konsentratsiyasi; qimmatli qog'ozlarni chiqarish asosida investitsiya moliyaviy vositalaridan foydalanishni kengaytirish; hayotni sug'urtalash bo'yicha operatsiyalarni kengaytirish va zaxiralarni maxsus davlat qimmatli qog'ozlariga joylashtirish uchun sug'urtalovchilarning investitsion imkoniyatlaridan foydalanish; noan'anaviy manbalar¹⁶.

Shunday qilib, hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, bir tomondan, moliyaviy-investitsion infratuzilma shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, hududning moliyaviy-investitsion faoliyat uchun ularning xususiyatlariga ko'ra, turli ko'rinishdagi moliyaviy vositalar mavjudligi bilan bog'liq¹⁷.

15 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

16 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

17 Xamidova F. A. Barqaror rivojlanish sharoitida mintaqaning moliyaviy-investitsion salohiyati // "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnal. www.economyjournal.uz. №2, 2021. B. 243–25. www.economyjournal.uz/maqola/Maqolalar_2021_2_son.pdf

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Овчинникова Т. И. Экономическая безопасность на основе организационной защиты предприятий. Финансы. Экономика. Стратегия. – 2012, № 9. – С. 10–12.
2. Сенчагов В. К. Экономическая безопасность: Производство, финансы, банки / – М.: Финстатинформ, 1998.
3. Гордиенко Д. В., Лузянин С. Г. Глобализация и обеспечение экономической безопасности Китая / Китай в мировой и региональной политике. Вып. ХВИИИ: ежегодное издание / сост. Й. И. Сафронова. – М.: ИДВ РАН, 2013. – С. 296 – 325.
4. Краснова Т. Г. Региональная экономика: территориальные аспекты развития Сибирского Федерального Округа: монография. Издатель: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования “Байкальский государственный университет” 2009.
5. Victoria V. A., Ainura A. K., Olga P. S. Methods for assessment of the economic security level in the region // Methods. – 2018. – Т. 39. – №. 24. – S. 28.
6. Бондина Й. А., Чинахова С. Э. Формирование структуры экономической безопасности на предприятиях // Молодой ученый. – 2017. – №13. – С. 253–257.
7. Каримов Н. Г., Хамидова Ф. А. Значение индикаторов экономической безопасности для регионов Республики Узбекистан. “Устойчивое развитие экономики: международные и национальные аспекты” электронный сборник статей ИИИ международной научно-практической онлайн-конференции (Новополотск, 18–19 апреля 2019 г.) Республика Беларусь. – С. 24–29.
8. Xamidova F. A. Osobnosti znacheniya indikatorov v oblasti obespecheniya ekonomicheskoy bezopasnosti regionov. The International Conference on “Enhancing of Contemporary Business Management, Economics, Innovation Technologies, and Social Sciences: A Viewpoint on Research and Practice” Tashkent, Uzbekistan May 24, 2021. – R. 118–124.
9. <http://hdr.undp.org/en/reports/global/2005>
10. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Main_Page
11. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Quality_of_life_indicators_-_economic_security_and_physical_safety#General_overview

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

